

QISHLOQ HUDUDLARI AHOLISINING MEHNAT MIGRATSIYALARINI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Rustamov Jaxongir

“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodimi

Fozilov Xamidulla

Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq aholisini ish bilan ta'minlashga mehnat migratsiyasining ko'rsatadigan ta'siri asoslab berilgan, qishloq aholisining tashqi va ichki mehnat migratsiyalarini samarali tashkil etishdagi asosiy muammolar aniqlangan hamda qishloq aholisining tashqi va ichki mehnat migratsiyalarini samarali tashkil etish yo'nalishlari taklif etilgan.

KIRISH

Qishloq aholisini ish bilan ta'minlashga mehnat migratsiyasi quyidagicha ta'sir ko'rsatadi: ishchi kuchining mamlakatlararo, hududlararo va tarmoqlararo qayta taqsimlanishi ro'y beradi; qishloq mehnat bozoridagi vaziyat yaxshilanadi, ya'ni mehnat migratsiyasi natijasida ortiqcha mehnat resurslari soni kamayadi; qishloqda aholining ishsiz qatlami ish bilan ta'minlanadi; qishloq aholisining mehnat daromadi oshadi va turmush darajasi yaxshilanadi; ishlovchilar yangi kasb va ko'nikmalarga ega bo'lib, ularning ish tajribalari ortadi; kadrlar tayyorlash uchun xarajatlarni tejash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida ko'plab xalqaro huquq normalariga qo'shilgan holda, inson huquqlarini, shu jumladan ishchi-migrantlar huquqlarini himoya qilishga jiddiy e'tibor qaratilib kelinmoqda. Tashqi mehnat migratsiyasi tizimini yanada takomillashtirish, uning tashkiliy shakllarini tubdan kengaytirish, mehnat faoliyatini

amalga oshirish uchun respublika tashqarisiga ketayotgan fuqarolarning mehnat va ijtimoiy huquqlari himoya qilinishini ta'minlash, xorijdan qaytib kelgan mehnat migrantlarini tadbirkorlik va mehnat faoliyatiga jalb etishni kengaytirish maqsadida bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 yanvarda qabul qilingan “Yo'lovchi avtotransportida favqulodda vaziyatlar profilaktikasi va ularning oldini olish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasidan tashqariga chiqadigan fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi 42-son qarorida O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasidan tashqariga chiqadigan fuqarolar o'rtasida transportda harakatlanish vaqtida xavfsizlik choralari ko'rish, xorijiy davlatda bo'lish qoidalari, shaxsiy xavfsizlik bo'yicha zarur choralar hamda tashqi migratsiya jarayonida fuqarolarning huquq va majburiyatlari belgilab berilgan [4].

ASOSIY QISM

O'zbekistonda Turkiya, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Polsha va Yaponiya mamlakatlari bilan rasmiy ko'rinishdagi mehnat migratsiyasi yo'lga qo'yilgan. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlariga qaraganda, 2017 yilda Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi tomonidan 3500 nafardan ortiq O'zbekiston fuqarolari tashkiliy ravishda ishlash uchun xorijga jo'natilgan. Jumladan, ikki tomonlama imzolangan kelishuvga muvofiq 2613 nafar O'zbekiston fuqarosi Koreya Respublikasiga, 922 nafar mehnat migranti Rossiyaga, 17 nafar fuqaro Yaponiyaga ishlashga jo'natilgan.

Qishloq joylarida ishchi kuchining tashqi mehnat migratsiyasi asosan norasmiy ko'rinishga ega. Mazkur holat ushbu turdagi mehnat migratsiyasining mavsumiy, vaqtinchalik va takrorlanuvchan xarakteridan kelib chiqadi. Kerakli ruxsatnoma, mehnat shartnomasi, mehnat faoliyati uchun viza, migrant karta, bojxona deklaratsiyasi va shu kabi rasmiy hujjatlarsiz amalga oshirilgan ishchi kuchi harakati norasmiy maqomga ega bo'lib, ushbu holat xorijga ishlashga ketayotgan fuqarolar hisobini yuritishda bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Migrantlarning huquqiy savodxonlik darajasining yetarli emasligi, ikki va ko‘p tomonlama o‘zaro kelishuv asosida me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning ishlab chiqilmaganligi, mehnat migratsiyasini tartibga solishning tizimli asosi yo‘lga qo‘yilmaganligi, ya‘ni yaxlit huquqiy tizimni yaratilmaganligi - bu sohada kelib chiqayotgan muammolarning sababi sifatida ko‘rilishi mumkin. Bu muammolarni bartaraf etish yo‘li esa xalqaro tashkilotlarning konvensiyalari va normalaridan kelib chiqqan holda, yagona hududiy yoki mamlakatlararo bir xil ta‘sir kuchiga ega bo‘lgan kelishuvlar, me‘yoriy xujjatlarni ishlab chiqilishini taqozo etadi.

Ayni paytda, respublikada yuzaga kelgan tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tizimli ravishda tartibga solish va nazorat qilish bo‘yicha mexanizmlarni takomillashtirish vazifasi ham ushbu jarayonlarning me‘yoriy-huquqiy asoslarini qaytadan ko‘rib chiqish bugungi kundagi o‘ta dolzarb masalalardan ekanligini ko‘rsatadi. Qishloq aholisining tashqi mehnat migratsiyasini samarali tashkil etish uchun tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Bizningcha, qishloq aholisining tashqi mehnat migratsiyasini samarali tashkil qilish bo‘yicha huquqiy asosni takomillashtirish lozim. Buning uchun esa quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: mehnat migratsiyasiga oid qonunchilik bazasini yaratish hamda unda xorijiy mamlakatlarda ishlovchi yurtimiz fuqarolarining huquq, erkinlik va kafolatlarini ifoda etish; xususiy sektor sub‘ektlariga ham rasmiy ishchi kuchi eksporti bilan shug‘ullanishga ruxsat berish va uni amalga oshirish mexanizmini joriy etish; Xalqaro Mehnat Tashkilotining mehnat migratsiyasi masalalariga oid konvensiyalarini ratifikatsiya qilish; respublikaning xorijiy mamlakatlardagi vakolatxonalarining xamkor davlatlarga ishchi kuchi eksportini amalga oshirish imkoniyatlarini o‘rganish va amalga oshirish bo‘yicha vakolatlarini kengaytirishyüksak salohiyatli va ishchi kuchiga talab yuqori bo‘lgan davlatlar bilan ishchi kuchini eksport qilish bo‘yicha o‘zaro Kelishuv shartnomalari (Memorandumlar) tuzish va amalga oshirish.

Tashqi mehnat migratsiyasini samarali tashkil etishda fuqarolarning chet elga borib mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun (yo‘lkira haqi, yotoq joy, ish boshlash

uchun oylik xarajatlar) tijorat banklari tomonidan kreditlar ajratish maqsadga muvofiq. Ishchi kuchi eksport qilinayotgan mintaqa quyidagi iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan farqlanishi lozim [5]: YaMM ning real o'sishi 4-7 foizni tashkil etadigan jadal iqtisodiy rivojlanish sur'ati va ishsizlik darajasining 1-2,5 foiz atrofida past ko'rsatkichi; yuqori mehnat sig'imli ishlab chiqarishga egaligi va milliy daromadlarda ish haqi ulushi 30-50 foizni tashkil etishi; mintaqa iqtisodiyotining eksportga yo'nalganligi va joriy operatsiyalar hisobida ijobiy saldoning mavjudligi; ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxining nisbatan pastligi va ularning jahon bozorida talabchanligi; qurilish ishlarining yuqori darajasi va YaIM da qurilish tarmog'ining 7-12 foizdan iborat yillik jadal o'sish sur'atga egaligi.

O'zbekistonda ishchi kuchi eksportining sezilarli o'sishini ta'minlash uchun yuqoridagi ko'rsatkichlarga ega bo'lgan mamlakatlar monitoringini muntazam olib borish va ular bilan ishchi kuchini eksport qilish yuzasidan xamkorlik aloqalarini o'rnatish talab etiladi. Mamlakat ichidagi mehnat migratsiyasi ishchi kuchining qishloqlardan shaharlarga, tuman markazi va shaharchalardan boshqa yirik shaharlarga, bir viloyatdan boshqa viloyatga kabi yo'nalishlarda bo'lishi mumkin. Mehnat migratsiyasining yo'nalishlari ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, joylashishi, iqtisodiyot tarmoqlarining ishchi kuchi bilan ta'minlanganlik hamda aholining turmush darajasidagi tafovutlar bilan belgilanadi. Qishloq joylarida ichki migratsiya qamrovi yetarlicha yirik darajada bo'lib, bu ko'rsatkich ayrim mintaqalardagi tashqi mehnat migratsiyasiga tengdir.

Mamlakat mintaqalari bo'yicha ichki mehnat migratsiyasi 8,9 foizga tengdir. Ichki mehnat migratsiyasida yirik shaharlar retseptlar vazifasini o'tamoqdalar. Xususan, ichki migratsiyaning 70,0-80,0 foiz Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelmoqda. Qishloq-shahar migratsiyasi respublikada ijobiy ahamiyatga ega. Zero, mamlakat qishloq joylarida aholining ko'pchiligi yashaydi va bu yerlarda aholi sonining yuqori sur'atlarda o'sishi saqlanib qolmoqda. Bu aholi zich yashaydigan hududlarda ish kuchi ehtiyojdan ortiqcha, mamlakatda qishloq joylarida yangi ish

o‘rinlari yaratishga birinchi darajali ahamiyat berilayotganiga qaramasdan, mehnat resurslarini ish bilan ta‘minlash muammosi o‘tkirlicha qolmoqda.

O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi uchun mavsumiylik va takroriylik xususiyati xos. Bu turdagi ishchi kuchi harakatini asosan qishloq aholisi (80,5%) vujudga keltirmoqda. Buning asosiy sababi bo‘lib ishchi kuchi taklifining ortishi va qishloq joylarda ish bilan ta‘minlanish imkoniyatining kamligi hisoblanadi. Shuningdek, qishloq ishchi kuchining katta qismi qishloq xo‘jaligiga safarbar etilganligi va mazkur tarmoqdagi ishlarning mavsumiy xarakterga egaligi mamlakatda mavsumiy mehnat migratsiyani kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Qishloq joylarida ichki mehnat migratsiyaning kelib chiqish sabablari quyidagilardan iborat: ish o‘rinlarining yetarli emasligi; ishchi kuchining bahosining arzonligi; yuqori ish haqili doimiy ishning yo‘qligi; yashash sharoitining og‘irligi; o‘qish uchun pul ishlab topish; mutaxassislik bo‘yicha ishning yo‘qligi; hech qanday kasb yoki hunarga ega bo‘lmaslik va h.k. Yuqoridagi muammolarning mavjudligi qishloq joylarida ichki mehnat migratsiyasini samarali tashkil etishni taqozo etadi.

Ichki mehnat migratsiyasini samarali tashkil etish uchun tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Ichki mehnat migratsiyani tashkil etishda hududlarning mehnat resurslari bilan ta‘minlanganligiga alohida e‘tibor qaratish kerak. Ya‘ni, aholini mehnat resurslari bilan ko‘p ta‘minlangan hududlardan kam ta‘minlangan hududlarga ko‘chirish maqsadga muvofiq. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma‘lumotlari asosida hududlarni mehnat resurslari bilan ta‘minlanganligi bo‘yicha 3 ta guruhga ajratdik.

1. Mehnat resurslari bilan ko‘p ta‘minlangan hududlar - Samarqand, Farg‘ona, Qashqadaryo, Andijon, Namangan, Toshkent va Surxondaryo viloyatlari.
2. Mehnat resurslari bilan o‘rtacha ta‘minlangan hududlar – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro va Xorazm viloyatlari.
3. Mehnat resurslari bilan kam ta‘minlangan hududlar – Jizzax, Sirdaryo va Navoiy viloyatlari.

Mehnat resurslari bilan kam ta'minlangan hududlarga aholining ichki migratsiyasini samarali tashkil etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Ishchi kuchi taqchil hududlarda keng tarmoqli ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratib, shu orqali yangi ish joylarini ochish, yangi ishlab chiqarishlarni vujudga keltirish lozim. Bunday hududlarga ishchi kuchlarini oilaviy ko'chib kelishini tashkil etish kerak. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq: mutaxassisligi bo'yicha kafolatlangan ish joyi bilan ta'minlanish; turar-joyga ega bo'lish. Bunda uy-joyni imtiyozli kredit asosida berish va kreditni muayyan muddat (bir yil)dan (qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yig'ishtirib olgandan) so'ng to'lashni boshlash hamda 5 yillik imtiyozli davr bilan 15 yilga berish.

2. Respublikaning barcha tumanlaridagi bandlikka ko'maklashish markazlari tasarrufida ichki mehnat migratsiyasi masalalari bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'lim tashkil qilish kerak. Bu bo'limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak: mehnat resurslarining hududiy, tarmoq va kasbi bo'yicha harakatchanlik balansini ishlab chiqish; yashash joyini o'zgartirishga muhtoj shaxslarni aniqlash maqsadida mehnat bozorining ahvoli monitoringini tashkil etish; ish bilan band bo'lmagan aholiga mehnat resurslari taqchil hududlardagi mavjud bo'sh ish o'rinlari to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etish; ishsiz bo'lgan fuqarolarni ro'yxatga olib, mehnat resurslari taqchil hududlarga ish bilan ta'minlashda ko'maklashish; ishsiz maqomi berilgan fuqarolarni boshqa hududlarga haq to'lanadigan jamoat ishlariga yuborish; boshqa hududlarga ko'chuvchilarga bankdan kreditni rasmiylashtirishda maslahatlar berish va ko'maklashish; mehnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida boshqa hududga ko'chayotgan fuqarolarning huquqiy va ijtimoiy muhofazasini belgilangan tartibda ta'minlash.

XULOSA

Mehnat migratsiyasiga taalluqli me'yoriy-huquqiy hujjatlarning aksariyat qismi bir necha yillar ilgari qabul qilinganligini hamda mehnat migratsiyasi sohasidagi mavjud vaziyatni to'liq o'zida aks ettirmaganligini hisobga olib, ularni qaytadan ko'rib

chiqish va mavjud holatni hisobga olgan holda tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish lozim. Ushbu sohada tayyorlangan hamda ko‘rib chiqish va kelishish uchun vazirlik, idoralarga kiritilgan qonun va qarorlar, xususan, mehnat migratsiyasi va rekruting agentliklari faoliyati yuzasidan qonunlar loyihalarini ko‘rib chiqib, qabul qilinishini tezlashtirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Абдураманов Х. Ўзбекистон республикасида демографик ривожланишнинг кўп омилли таҳлили ва истиқбол кўрсаткичлари //Иқтисодиёт ва таълим. –2020. – Т. 1. – №. 2. – С. 137-142.
2. Абдураманов, Х. (2020). Многофакторный анализ и перспективы демографического развития в Республике Узбекистан. Экономика И Образование, 1(2), 137–142.
3. Абдурахманова Г.Қ., Абдураманов Х.Х. Ижтимоий сохалар ва инсон тараққиёти //Т.: Фан ва технология Т. – 2018. – Т. 312.
4. Абдурахмонов ҚХ А. Х. Х. Демография //Ўқув кўлланма–Т.: Ношир. – 2011. – Т. 200.
5. Abduramanov H. H., Honturayev B. B. Ways to eliminate problems with early marriage and premature birth.
6. Abduramanov K. K., Ibragimov L. Z. Regional characteristics of demographic development in the republic of uzbekistan //SEA: Practical Application of Science. – 2015. – Т. 3. – №. 1.
7. Abduramanov K., Dekhkanov S. Experience of foreign countries in the prevention of early marriage and early childbirth //InterConf. – 2021.
8. Khamid A. Ўзбекистон республикасида янги демографик вазиятнинг шаклланиш хусусиятлари //Архив научных исследований. – 2019.
9. Холмўминов, Ш., & Абдураманов, Х. Х. (2020). Қишлоқ аҳолисининг ташқи ва ички меҳнат миграцияларини самарали ташкил этиш. Архив научных исследований, 1(29).

10. Холмўминов, Ш., Хомитов, К., Арабов, Н., Абдураманов, Х., & Саидов, Н. (2020). Qishloq aholisini ish bilan ta'minlashning strategik yo'nalishlari. Архив научных исследований.
11. Abduramanov Hamid Khudaybergenovich. “Demographic Development Tendencies of the Family in Uzbekistan”. International Journal of Trend in Scientific Research and Development. Vol 3 (1), 2018, pp.617-620. <https://doi.org/10.31142/ijtsrd19013>
12. Abduramanov K. K. Evaluation of the influence demographic factors on aging population in the Republic of Uzbekistan //Lucrările Seminarului Geografic" Dimitrie Cantemir". – 2016. – Т. 42. – С. 93-98.
13. Abduramanov K. K. Ways Of Improving Social Support Of The Aged Population In The Conditions Of Senility Tendency Deepening //European Journal of Business and Economics. – 2010. – Т. 1. DOI: <https://doi.org/10.12955/ejbe.v1i0.80>
14. Абдураманов Х.Х. Социальная защита престарелых: на примере Республики Узбекистан. Проблемы современной экономики, N 2 (58), 2016. Стр: 193 – 196. <http://www.m-economy.ru/art.php?nArtId=5802>
15. Ziyadullayevich I. L., Murodovich M. B., Sayidovch M. F. Employment Of Population And Its Geographical Study //JournalNX. – С. 163-167.
16. Ibragimov L., Muminjonova S. HUDUDLARNI IQTISODIY RIVOJLANISHIDA YER VA SUV RESURSLARINING AHAMIYATI //Eurasian Journal of Academic Research. – 2023. – Т. 3. – №. 1 Part 2. – С. 164-169.